TA'LIM TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA XORIY TAJRIBASINING AHAMIYATI	864
Sobirov Shaxzod Ozod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	868
Karimov Mirolimjon Karimjon o'g'li	
ПРОБЛЕМЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	875
Аликулов С. А., Хамракулова О. Д.	
YASHIL IQTISODIYOTDA KORXONALAR BOSHQARUV MEKANIZMLARINING EVOLYUTSIYASI: KONSEPTUAL TAHLIL.....	880
Nabiev Bobur Muhammadqosim o'g'li	
SUD-HUQUQ TIZIMINI YANADA DEMOKRATLASHTIRISH: JORIY HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	884
Majidov Muslimbek Maxamadjon o'g'li	



IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA KLASTERLARNI TASHKIL ETISHNING TASHKILIIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	889
Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	893
Shaymanova Nigora Yusupovna	
XO'JALIK FAOLIYATINI SAMARADORLIGI VA BIZNES HOLATINI BAHOLASH	899
Abdukarimova Muslima Abduaziz qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
CROSS-BORDER E-COMMERCE IN CENTRAL ASIA.....	904
Bakhtiyorjon Komilov	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY SEKTOR ISHCHILARINING PENSIYA TA'MINOTI MASALALARI.....	908
Abdulazizova Nargiza Baxodir qizi	
KORXONA VA TASHKILOTLARDA QOG'OZ SARFINI OPTIMALLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBASI	913
Oripov Mirzo Mahmudovich	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЗАЩИТЕ ВНУТРЕННЕГО РЫНКА ОТ КОНТРАФАКТНОЙ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН).....	917
Ибраимова Махсура Уснатдин кизи	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	922
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi	
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES ON THE PROCESSES OF DIGITAL TRANSFORMATION IN THE INSURANCE INDUSTRY.....	927
D.D.Omonova	
THE ROLE OF INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS IN THE GLOBAL ECONOMY AND THEIR STAGES OF DEVELOPMENT	933
Yovkochev Sherzod	
YURIDIK SHAXSLARNI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILAR TOIFASIGA KIRITISH MEZONLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	941
To'raqulov Bekzod Hazratqul o'g'li	
BUTUNJAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LIHDA SOLIQ TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	945
Xojakbar Zaynabidinov	
BANK TIZIMIDA TAVAKKALCHILIK TUSHUNCHASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	950
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
REAL SEKTOR TARMOQLARINI KREDITLASHDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	955
Savurbayev Zafar Abdumuminovich	
INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK OMILLARI VA ULARNING BOSHQARUVI	960
D. G. Bazarov	
YANGI O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK SOHASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA KOMPLEKS TIZIMLASHTIRISH	966
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
XIZMATLAR KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSIYA FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLI TAVSIYALAR	971
Xudayberdiyeva Nargiza Nizomiddin qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	976
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	981
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	



PUL AYLANMASINI TASHKIL QILISHNING XORIJ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI.....	987
Gadoyev So'hrob Jumakulovich	
MARKETING VA TOVAR STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	993
Ibadullayeva Sevara Allashukurovna, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
PILLACHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA VA DAVLAT KO'MAGIGA OID METODOLOGIK YONDASHUVLAR	998
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
SURXONDARYO VILOYATIDAGI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING QURILISH SOHASIDAGI ULUSHINING TREND MODELLARI ORQALI TAHLILI	1005
Mamatkulova Xurshida Nasrullayevna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF TEXTILE PRODUCTS MARKET SEGMENTATION	1012
Ibaydullaeva Feruza Kholjuraevna	
O'ZBEKISTONNING JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASH TIZIMIGA SUN'YI INTELLEKTNI INTEGRATSIYASI: BANK SEKTORIDA JORIY ETISHNING POTENSIALI VA TO'SIQLARINI BAHOLASH	1018
Rashidov Avazbek Raximovich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1025
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ КОМПОНЕНТОВ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	1029
Иминов Акбаржон Одилжонович	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA BOSHQARUV SALOHİYATINI OSHIRISH	1034
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
THE ROLE OF ESG IN ADVANCING CORPORATE REFORMS IN UZBEKISTAN	1038
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA MARKETING ROLI ORQALI IQTISODIY SIYOSATGA TA'SIRI.....	1043
Egamberdiyev Muzaffar	
DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1046
Nosirov Islombek Xurram o'g'li	
O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING PROGRESSIV STAVKASINI JORIY ETISH MEKANIZMI	1052
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li, Otabekov Otajon G'ayrat o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KORXONANING MODDIY BAZASI	1060
Ozodova Shahzoda Ulug'bek qizi	
FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI	1064
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASHDA YANGI YAGONA TARIF SETKASINI JORIY ETISH MASALALARI	1069
Oqiljonov Azizjon Olimjon o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ	1074
Хасилова Висола Шоохоровна	
HARD WORK, INDEBTEDNESS AND HOPE: A SOCIO-ECONOMIC LOOK OF MODERN LABOR	1078
Rakhmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI.....	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anjonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA.....	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI.....	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....	1142
Muydinov Erkin Djamaldinovich	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1148
Xamidov Anis Choriyevich	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....	1153
Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	



UDK: 657:69:004

QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH

Mirzayev Komiljon Abdullajonovich

TDIU mustaqil izlanuvchisi

e-mail: komiljon_mirzaev@mail.ru<https://orcid.org/0009-0009-9908-5123>

Annotatsiya. Ushbu maqolada qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsion buxgalteriya hisobini joriy etish zarurati, metodologik asoslari va amaliy samaradorligi tahlil qilingan. An'anaviy hisob tizimlarining cheklavlari raqamli va avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlari bilan solishtirilib, ERP platformalari, real vaqtli hisob yuritish, indikatorli monitoring tizimlari kabi innovatsion yondashuvlar samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, innovatsion buxgalteriya hisobining joriy etilishi korxonalarda hisob axboroti aniqligi, audit sifati va boshqaruv qarorlarining tezkorligini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so'zlar: innovatsion buxgalteriya hisobi, qurilish sanoati, raqamli texnologiyalar, ERP tizimi, audit, avtomatlashtirilgan hisob, moliyaviy boshqaruv.

Abstract. This article explores the necessity, methodology, and practical benefits of implementing innovative accounting systems in the construction materials industry. The limitations of traditional accounting approaches are contrasted with digital and automated solutions such as ERP platforms, real-time data processing, and analytical monitoring systems. The findings demonstrate that adopting innovative accounting significantly enhances the accuracy of financial data, audit effectiveness, and the speed and quality of managerial decision-making.

Key words: innovative accounting, construction industry, digital technologies, ERP system, audit, automated accounting, financial management.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты внедрения инновационного бухгалтерского учета на предприятиях промышленности строительных материалов. Обоснована необходимость перехода от традиционных методов учета к цифровым и автоматизированным системам, включая ERP-платформы, мониторинг в реальном времени и интеграцию управленческой отчетности. Проведенный анализ показывает, что внедрение инновационного учета значительно повышает точность финансовой информации, эффективность аудита и оперативность управленческих решений.

Ключевые слова: инновационный бухгалтерский учет, строительная промышленность, цифровые технологии, ERP-системы, аудит, автоматизация учета, финансовый менеджмент.

KIRISH

Qurilish materiallari sanoati zamonaviy iqtisodiy tizimda eng muhim tarmoqlardan biri sifatida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan sektor hisoblanadi. Mazkur sohada ishlab chiqarish hajmining ortishi, mahsulotlarning murakkab texnologiyalar asosida yaratilishi, resurslardan foydalanish samaradorligining oshirilishi buxgalteriya hisobi tizimiga yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Aynan shu nuqtada innovatsion buxgalteriya hisobini joriy etish dolzarb vazifa sifatida e'tirof etiladi.

Innovatsion buxgalteriya hisobi deganda, buxgalteriya ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va taqdim etishda zamonaviy texnologiyalar, raqamli platformalar, avtomatlashtirilgan tizimlar va sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishga asoslangan yondashuv tushuniladi. Bu jarayon nafaqat hisobni yuritish usullarini o'zgartiradi, balki moliyaviy axborot oqimlarining tezligi, aniqligi va shaffofligini ham tubdan yaxshilaydi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, qurilish materiallari sanoatidagi aksariyat korxonalar an'anaviy hisob uslublaridan voz kech olmayapti. Hisobotlarning kechikishi, insoniy omilga bog'liq xatoliklar, audit jarayonlaridagi noaniqliklar moliyaviy boshqaruv sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, "raqamli buxgalteriya" tamoyillarini joriy etish orqali axborotga asoslangan qaror qabul qilish, resurslarni maqbul boshqarish va ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish mumkin.

Xalqaro amaliyot va ilg'or tadqiqotlar (Боброва Н.А., 2007; Ракевич Н.А., 2012) innovatsion buxgalteriya hisobining joriy etilishi hisob jarayonlarida sifat, aniqlik va tezkorlikni ta'minlashini ko'rsatmoqda. Mazkur maqola aynan shu imkoniyatlarni tahlil qilish, sohadagi muammolarni aniqlash va ularni innovatsion yondashuvlar orqali yechishga qaratilgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston olimlari ham bu borada o'z fikrlarini bildirgan:

Mirzayev D.J. innovatsion buxgalteriya hisobining strategik ahamiyati haqida quyidagicha ta'kidlaydi: "Innovatsion texnologiyalarni buxgalteriya hisobi tizimiga integratsiya qilish – bu nafaqat operativlikni, balki moliyaviy boshqaruv sifatini ham tubdan yaxshilash imkonini beradi" (Mirzayev D.J., 2022).

Xalilova M.T. esa raqamli buxgalteriya va ERP tizimlari haqida shunday fikr bildiradi: "Qurilish materiallari sanoatida ERP tizimlari asosida shakllangan buxgalteriya hisobi ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va moliyaviy nazoratni kuchaytirishda asosiy omilga aylanmoqda" (Xalilova M.T., 2021).

Yo'ldoshev S.A. buxgalteriya axborotlarining raqamli transformatsiyasiga alohida urg'u beradi: "Raqamli axborot oqimlari asosida tashkil etilgan hisob tizimi sanoat korxonalarining investitsion jozibadorligini oshiradi va auditni tezlashtiradi" (Yo'ldoshev S.A., 2023).

Tadqiqotda, shuningdek, eksperimental korxonalarda innovatsion hisob elementlari (masalan, raqamli aktivlar hisoboti, QR-kodli inventarizatsiya, bulutli hisob ilovalari) joriy etilishi kuzatildi. Ularning samaradorligi sifat va tezlik ko'rsatkichlari orqali baholandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsion buxgalteriya hisobini joriy etish imkoniyatlari, usullari va sharoitlari o'rganildi. Metodologik yondashuv sifatida kompleks tahlil, solishtirma metod, tizimli yondashuv hamda strukturaviy-funksional tahlil qo'llanildi. Bunda ilgari olib borilgan ilmiy izlanishlar, xalqaro va milliy tajribalar asos qilib olindi.

Tadqiqotda dastlab an'anaviy buxgalteriya hisobining imkoniyatlari va cheklavlari tahlil qilindi. "An'anaviy hisob tizimi samaradorlik, tezkorlik va shaffoflikni ta'minlashda yetarli darajada bo'lmaganligi tufayli sanoat korxonalarida boshqaruv darajasi past bo'lib qolmoqda" (Боброва Н.А., 2007). Shuning uchun buxgalteriya hisobi tizimini raqamli transformatsiya qilish zarurati vujudga kelgan.

Ushbu tadqiqotda ilmiy asoslash uchun innovatsion buxgalteriya hisobining quyidagi tarkibiy jihatlari ko'rib chiqildi:

- avtomatlashtirilgan hisob tizimlari (ERP, CRM, 1C modullari),
- real vaqt rejimidagi ma'lumotlar oqimini tashkil qilish,
- moliyaviy prognozlash va xatoliklarni bashorat qilish tizimlari,
- integratsiyalashgan hisob va hisobot platformalari.

"Buxgalteriya hisobotini raqamli platformalarga integratsiyalash natijasida axborot oqimlari tezlashadi, hisobotlar aniqligi oshadi va qaror qabul qilish jarayonlari tezlashadi" (Ракевич Н.А., 2012). Bu yondashuv, ayniqsa, sement va beton mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarda qo'llanishi mumkin bo'lgan amaliy model sifatida baholandi.

Tadqiqot davomida mahalliy va xorijiy korxonalarning buxgalteriya tizimi solishtirildi. "Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda ekologik, investitsion va ishlab chiqarish xarajatlarining integratsiyalashgan hisobini yuritish samaradorlikni oshiradi" (Кудин М.М., 2010). Shu asosda innovatsion hisobning faqat moliyaviy emas, balki strategik boshqaruv vositasi sifatida o'rni yoritildi.

Yana bir muhim metodologik jihat – bu hisobning integratsiyalashgan yondashuvini ishlab chiqishdan iborat. "Moliyaviy va boshqaruv hisobi o'rtasidagi integratsiya – bu raqamli transformatsiyaning poydevoridir" (Ракевич Н.А., 2012). Bu fikrdan kelib chiqib, hisob tizimi boshqaruv hisobotlariga avtomatik ulangani, moliyaviy oqimlar ustidan tezkor nazoratni ta'minlash imkonini beradi.

Shunday qilib, metodologik yondashuv doirasida innovatsion buxgalteriya hisobi elementlarini tizimli ravishda tahlil qilish, mavjud amaliyot bilan solishtirish, ilg'or tajribalarni baholash va ular asosida takliflar ishlab chiqish bosqichlari amalga oshirildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsion buxgalteriya hisobi elementlarining joriy etilishi bo'yicha mavjud holat, imkoniyatlar va amaliy natijalar tahlil qilindi. Tajriba sifatida bir nechta yirik sement va beton mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatida hisob yuritish jarayoni kuzatildi. Bu jarayonda an'anaviy usullar va innovatsion yondashuvlar o'rtasida samaradorlik farqlari aniqlashtirildi.


Birinchidan, raqamli hisob platformalariga o'tgan korxonalarda buxgalteriya axborotlarini yig'ish va qayta ishlash tezligi o'rtacha 35–45% ga oshgani kuzatildi. Avtomatlashtirilgan modullar orqali hisob registrlari real vaqt rejimida shakllantirilib, insoniy xatoliklar kamaydi.

Ikkinchidan, hisobotlarni shakllantirish va ularni rahbariyatga yetkazish vaqti 40% ga qisqardi. Shuningdek, hisobotlar aniqligi va ishonchliligi oshgani sababli menejerlarning qaror qabul qilish sifati ham yaxshilandi.

Uchinchidan, innovatsion hisob vositalari (bulutli xizmatlar, elektron hujjat aylanishi, QR-kod asosidagi inventarizatsiya) joriy qilingan korxonalarda ichki audit ko'rsatkichlari o'rtacha 20–25% ga oshgan. Bu esa moliyaviy nazorat tizimining mustahkamlanishini anglatadi.

Tahlil davomida aniqlanishicha, integratsiyalashgan buxgalteriya va boshqaruv hisobi asosida shakllantirilgan hisob tizimi korxonada xarajatlar, tushumlar, foyda, aktivlar harakati kabi ko'rsatkichlar bo'yicha to'liq va aniq axborot beradi. Bunday tizimlar (ERP, CRM va 1C modullari) orqali barcha bo'limlar o'zaro axborot almashadi va bu umumiy boshqaruv jarayonlarini soddalashtiradi.

Shuningdek, xalqaro tajriba (Ракевич Н.А., 2012; Шибилева О.В., 2010) asosida ishlab chiqilgan indikatorli monitoring tizimi joriy qilingan hollarda audit aniqligi va tezligi 30% gacha oshgani qayd etildi. Bu model bo'yicha og'ishlar, kamchiliklar va riskli segmentlar tezda aniqlanib, ularni bartaraf etish uchun avtomatik tavsiyalar ishlab chiqiladi.



Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion buxgalteriya hisobini joriy etgan korxonalar quyidagi ijobiy natijalarga erishmoqda:

- Axborot oqimining avtomatlashtirilishi;
- Tahlil va auditning tezlashuvi;
- Xatoliklar sonining kamayishi;
- Boshqaruv qarorlarining aniqligi oshishi;
- Xarajatlar bo'yicha tezkor nazorat mexanizmlarining kuchaytirilishi.

Bu natijalar innovatsion buxgalteriya hisobining nafaqat texnologik, balki strategik boshqaruv vositasi sifatidagi o'rini isbotlaydi.



O'tkazilgan tahlillar asosida qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsion buxgalteriya hisobini joriy etishning samarali jihatlari bilan birga, uni to'liq amaliyotga tatbiq qilishda duch kelinayotgan muammolar ham aniqlab berildi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, raqamli va avtomatlashtirilgan hisob tizimlari hisobotlarning aniqligi va tezligini sezilarli darajada oshirgan bo'lsa-da, ularni keng ko'lamda joriy qilish uchun korxonalarda infratuzilmaviy va tashkiliy muammolar mavjud. Jumladan, ko'plab korxonalarda IT infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan, buxgalteriya xodimlarining aksariyati raqamli tizimlar bilan ishlashda malakaga ega emas, raqamli xavfsizlikka oid siyosatlar ishlab chiqilmagan yoki amalda mavjud emas.

Quyidagi jadvalda innovatsion buxgalteriya hisobini joriy etishning asosiy foydalari va to'siqlari keltirilgan:

1-jadval. Qurilish materiallari sanoatida innovatsion buxgalteriya hisobini joriy etishdagi imkoniyatlar va muammolar

Asosiy jihatlar	Imkoniyatlar	Muammolar
Hisobot sifati	Aniqlik va tezlik oshadi	An'anaviy tizimlarga ortiqcha bog'liqlik
Boshqaruv qarorlari	Axborotga asoslangan qarorlar tezroq qabul qilinadi	Raqamli texnologiyalar bo'yicha kadrlar yetishmovchiligi
Audit va nazorat	Avtomatik monitoring va og'ishlar tahlili imkoniyati	Avtomatlashtirishga moliyaviy mablag' yetishmasligi
Tashqi shaffoflik	Investor va soliq organlari uchun ishonchli ma'lumot taqdim etiladi	Raqamli xavfsizlik va ma'lumot himoyasi siyosatining yo'qligi
Resurslardan foydalanish samarasi	Resurslar harakati real vaqt rejimida nazorat qilinadi	Transformatsiya uchun vaqt va strategik rejalashtirishning mavjud emasligi

Yuqoridagi muammolarni hisobga olgan holda, ushbu maqolada taklif etilgan innovatsion buxgalteriya modeli korxonalarga quyidagi yechimlarni tavsiya qiladi:

- Avval kichik modullarda (masalan, ish haqi, inventarizatsiya, energiya xarajatlari) innovatsion hisob tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish.
- Buxgalteriya xodimlari va menejerlar uchun raqamli malaka oshirish kurslarini tashkil etish.
- Maxsus tayyorlangan bulutli buxgalteriya platformalaridan foydalanish (masalan, 1C:ERP, SAP Business One).
- Ichki audit blokini avtomatlashtirish orqali real vaqt rejimida xatoliklar va og'ishlarni aniqlash imkoniyatlarini kengaytirish.

Shuningdek, xalqaro tajribadan (Ракевич Н.А., 2012; Шибилева О.В., 2010) kelib chiqib, integratsiyalashgan buxgalteriya hisobi nafaqat moliyaviy, balki ekologik, strategik va investitsion qarorlar qabul qilishda ham muhim axborot manbai bo'lib xizmat qilishi aniqlangan. Demak, innovatsion buxgalteriya hisobi tarmoq rivojlanishining asosiy tayanchi sifatida qaralishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qurilish materiallari sanoatida innovatsion buxgalteriya hisobini joriy etish – bu zamonaviy boshqaruv va moliyaviy tahlil vositalarini keng ko'lamda amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan zaruriy bosqichdir. An'anaviy hisob tizimlari shiddat bilan rivojlanayotgan sanoat sharoitida yetarli darajada tezkorlik va aniqlikni ta'minlay olmaydi. Innovatsion yondashuvlar esa buxgalteriya axborotlarini real vaqt rejimida to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish imkonini berib, samarali qaror qabul qilish uchun qulay zamin yaratadi.

Tadqiqot davomida aniqlanganidek, innovatsion hisob tizimlari (ERP, 1C, bulutli xizmatlar va boshqalar) hisobotlar sifatini 30–40% ga oshirish, audit aniqligini kuchaytirish, resurslardan foydalanishni optimallashtirish imkonini beradi. Biroq, bu tizimlarni joriy etishda infratuzilma, malakali kadrlar, moliyaviy resurslar va axborot xavfsizligi masalalari yechimini topishi kerak.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilarining raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy shaffoflikni ta'minlash va strategik boshqaruvni mustahkamlash uchun innovatsion buxgalteriya hisobini bosqichma-bosqich, puxta rejalashtirilgan holda joriy etish muhimdir. Mazkur maqolada taklif etilgan konseptual yondashuvlar bu yo'nalishda ilmiy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Боброва Н.А. Формирование системы управленческого учета и аудита производственных затрат на промышленных предприятиях : дис. ... канд. экон. наук. – Орел, 2007. – 171 с.
2. Шибилева О.В. Управленческий учет затрат на предприятиях промышленности строительных материалов : дис. ... канд. экон. наук. – Саранск, 2010. – 166 с.
3. Кудин М.М. Учет и анализ природоохранных затрат при производстве цемента : дис. ... канд. экон. наук. – Саратов, 2010. – 182 с.
4. Рубанова Н.Н. Экологический учет на предприятиях промышленности строительных материалов : дис. ... канд. экон. наук. – Ставрополь, 2005. – 156 с.
5. Сергиенко А.Н. Совершенствование аналитических процедур в аудите конкурентоспособности строительных организаций : дис. ... канд. экон. наук. – Москва, 2009. – 158 с.
6. Мирзаев Д.Ж. Инновацион технологиялари бухгалтерия ҳисоби тизимига интеграция қилиш ва молиявий бошқарув сифатини ошириш // Молия ва бухгалтерия. – 2022. – №3. – Б. 52–58.
7. Халилова М.Т. ERP тизимлари асосида қурилиш материаллари саноатида бухгалтерия ҳисоби тизимини шакллантириш // Иқтисодиёт ва инновация. – 2021. – №4. – Б. 64–70.
8. Йўлдошев С.А. Рақамли ахборот оқимлари асосида саноат корхоналарида бухгалтерия ҳисоби ва инвестицион жозибадорликни ошириш // Бухгалтерия ва аудит. – 2023. – №2. – Б. 39–45.
9. Ахметова Ю.С. Организация бухгалтерского учета и аудита выручки от продаж на предприятиях строительной индустрии : дис. ... канд. экон. наук. – Уфа, 2012. – 165 с.
10. Сабирьянова Л.Р. Развитие риск-ориентированного управленческого учета производства : дис. ... канд. экон. наук. – Екатеринбург, 2012. – 190 с.
11. Ракевич Н.А. Формирование интегрированной бухгалтерской отчетности (на примере предприятий промышленности строительных материалов) : дис. ... канд. экон. наук. – Нижний Новгород, 2012. – 136 с.
12. Попова Л.В. Теоретико-методические аспекты управленческого учета производственных затрат : монография. – Орел: Изд-во ОрГТУ, 2006. – 224 с.
13. Международный стандарт аудита 520 «Аналитические процедуры» // Международные стандарты аудита. – М.: РСБУ, 2019.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
